

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI
METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI**

ERGASHEVA G.A.

**Boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish darslarida lug'at
ustida ishlash usullari**



Samarqand – 2023

Ergasheva G. – Samarqand viloyati PYMO‘MM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi.“ Boshlang‘ich sinflarda savod o‘rgatish darslarida lug‘at ustida ishlash usullari ”*Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun* uslubiy ko‘rsatma. Samarqand Viloyat PYMO‘MM 2023-yil.38 bet.

Taqrizchilar: F.Shodiyev O‘zbekiston –Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Qoraboyev– Samarqand viloyati PYMO‘MM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Ushbu uslubiy ko‘rsatma boshlang‘ich sinflar o‘quv dasturida ona tili, o‘qish bolalarining lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqni o‘stirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish,nutq madaniyatini shakllantirish, nutq ta’sirchanligini ta’minlashning muhim omili ekanligi haqidagi ma’lumotlar o‘z aksini topgan

Uslubiy ko‘rsatma hududiy markaz Ilmiy-uslubiy kengashining 18.02.2023- yil - 2-sonli yig‘ilish qarori bilan nashr etishga ruxsat berilgan.

Kirish.

Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy "Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotdir" - deb aytishlarida katta ma'no bor. Haqiqatan, tilning insonlar o'rtasidagi kommunikativ vazifasi uning jamiyatda muhim ekanini anglatib turadi.

Inson o'z fikrini boshqa kishilarga og'zaki va yozma shaklda yetkazishi mumkin. Nutqning bu shakllari o'zaro bog'liq bo'lib, vazifalariga ko'ra o'xshash va farqli tomonlariga ega. Ularning har ikkisini jamiyat a'zolari o'zlashtirishlari zarurligini hayotning o'zi taqozo etadi. Og'zaki nutq tovush chiqarib aytiladi va eshitilish uchun mo'ljallanadi. U kishilarning nutq jarayoni vaqtidagi aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutq esa tosh, yog'och, teri, metall, qog'oz kabilarga ko'rish asosida idrok qilinadigan doimiy belgilar orqali yozib qo'yiladi. Yozuv kishilarning o'zaro fikr almashishi va bilimlarni egallahning qudratli vositasi hisoblanadi. Yozma nutq avlodlarni bir-biriga bog'laydi, uzoq saqlanadi. Yozuv tufayli kishi fikri, insoniyat qo'lga kiritgan bilimlar avloddan-avlodga yetib boradi, abadiy yashaydi.

Lotin alifbosiga asoslangan o'zbek alifbosidagi harflar ham bosmasdan, ortiqcha jimjimasiz, qo'l uzmasdan bog'lab yoziladi. Shunung uchun yozuvga o'rgatish metodikasida harflarni qo'shishga alohida ahamiyat beriladi. O'quvchilar barcha harflarni bir-biriga qo'shish yo'lini bilishlari lozim.

Yozuvga o'rgatish, birinchi navbatda, grafik malaka hosil qilishdir. Har bir malaka ham ta'lim berish, ko'nikmani shakllantirish va shu asosida qator mashqlarni bajarish natijasida hosil bo'ladi.

Yozuv ko'nikmasini egallah ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib turli rasmiy hujjatlarni yuritishda kishilar unga ehtiyoj sezadi. Harflar shaklini to'g'ri yozish hujjatlarni o'qish imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinflarda savod o‘rgatish darslarida lug‘at ustida ishlash metodikasi

Boshlang‘ich sinflar o‘quv dasturida ona tili, o‘qish bolalarning lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqni o‘sirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, nutq madaniyatini shakllantirish, nutq ta’sirchanligini ta’minlashning muhim omilidir - deyiladi. Bu vazifalar grammatik mavzularni o‘rganish, mashq matnlarini kuzatish va tahlil qilish, maxsus lug‘aviy-grammatik mashqlar orqali bajariladi.

Ona tili o‘qitishning bosh maqsadi ham tilning jamiyatda tutgan o‘rni, vazifasi bilan belgilanadi. Til - aloqa vositasi, chunki so‘zlovchi fikr-mulohazalarini til orqali bayon qiladi, tinglovchi esa til vositalari orqali ro‘yobga chiqqan fikrni anglaydi.

Alifbe fani o‘quvchilarni fikr bayon qilish va uni uqib olish faoliyatiga tayyorlaydi. Fikr til vositasida ro‘yobga chiqadi, shu sababli har bir kishi tilni va undan foydalanishni bilishi zarur. Tilni bilishning grammatik qonun-qoidalarini, ta’rifini o‘zlashtirishgina emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan amaliy foydalana bilish hamdir, ya’ni fikrni og‘zaki va yozma shaklda to‘g‘ri, tushunarli va savodli ifodalay bilishdir. Bunga erishish uchun alifbe darslarida lug‘at ustida ishlashga alohida e’tibor qaratish lozim.

Lug‘at ishida so‘zning ma’nosi, talaffuzi va imlosi e’tiborda tutiladi. Bular ustida ishlashdan asosiy maqsad ehtiyoj sezilgan paytda o‘quvchilarning ulardan nutqda foydalanishlariga erishish, o‘zgalar nutqini anglashlarini ta’minlashdir.

Buning uchun o‘qituvchi alifbe darslarida qo‘llangan har bir so‘zning va ta’limiy jarayonlarda: ekskursiya, o‘zaro suhbat, turli tadbirdarda ishlatilgan so‘zlarning ma’nosiga e’tibor bilan qarashi, ularning qaysilari maxsus ishlashni taqozo etishini belgilab olishi kerak.

Tilning lug‘at boyligini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi uchun savod o‘rgatish darslarida so‘zlar va ularning ma’nolari quyidagicha tanishtiriladi:

1. O‘quvchilarni notanish so‘z va iboralar bilan tanishtirish.

O‘quvchilar darslikdagi so‘z va iboralarga birinchi marta duch kelayotgan bo‘lishi mumkin. Bu so‘z yangi paydo bo‘lgan so‘z bo‘lmasa ham, o‘quvchini ma’nosini bilmaydi, demak, o‘quvchi uchun yangi so‘z hisoblanadi.

Masalan, 1-sinf „Alifbe“ darsligida xabib (do‘st), dar-parda (oyna o‘rniga shaffof qog‘oz yopishtirilgan derazaparda), mag‘rur (kekkaygan, mag‘rur — kamtar), kamol (har tomonlama yetuk, to‘kis, kamol topmoq — xazon bo ‘Imoq), xaroba (qarovsiz qolgan vayrona), qardosh (do‘st, birodar, qarindosh-urug‘), safdosh (harbiy xizmatda birga, tashkilotda birga), sarkarda (qo‘mondan, lashkarboshi), zeb(bezak, ko‘rk, husn), qasr (hashamatli saroy, ko‘shk) kabi so‘zlarga duch keladilar.

Bunday so‘zlarning ma’nosini sinonimlar keltirib kengaytirish yo‘li bilan qarama-qarshi ma’noli so‘zlar bilan izoh berish yo‘li bilan, gap tuzish orqali ma’nosini yechish, rasmlar orqali tushuncha hosil qilish yo‘li bilan tushuntirish mumkin. Bunday ishslash o‘quvchilarda so‘z ma’nolariga nisbatan sezgirlikni yuzaga keltiradi.

2. O‘quvchilarni so‘zning yangi ma’nolari bilan tanishtirish. O‘quvchilar ko‘p ma’noli so‘zlarning bir ma’nosini tushunsa, boshqa ma’nosini bilmasliklari mumkin. Bolalar so‘zlarning hamma ma’nolarini birdaniga o‘zlashtirib ololmaydilar. Ularning ma’nosini o‘zlashtirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. 1-sinflarda o‘quvchilar ko‘p ma’noli so‘zning bir-ikki ma’nosini ma’nolarini bilib oladi.

3. O‘quvchilar tilida kam qo‘llanadigan so‘zlar ma’nosini ustida ishslash. Adabiy tilga oid ba’zi so‘zlar o‘quvchilar nutqida kam qo‘llanadi. Bu so‘zning ma’nosini o‘quvchi yetarli darajada tushunmaydi. Uning o‘rnida oddiy so‘zlashuvga doir, eskirgan yoki shevaga oid so‘zlarni qo‘llaydi. O‘qituvchi ularni kitobiy so‘zlar bilan almashtirish uchun nutqda qo‘llashga majbur etadigan vaziyat yaratishi,ehtiyojni yuzaga keltirishi zarur. Masalan, jim - tinch - osuda - osoyishta, yurakdan- dildan, soat strelkasi - soat millari, garmdori - qalampir, daqiqa - daqiqa, rayon- tuman kabi.

So‘zlarning qo‘llanishini faollashtirish uchun yozma ishlar o‘tkazilayotganda

ham o‘quvchilar e’tiborni ayrim so‘zlarni boshqasi bilan almashtirishlariga qaratiladi. 1-sinfda rasmlar asosida og‘zaki hikoya tuzayotgan o‘quvchilarning nutq birliklari bir-biridan farqli bo‘lishi, biri ikkinchisining so‘zini qaytarmasligi talab qilinadi. Masalan, Shirinsuxan - shirinso‘z, nasim –tonggi yel (shamol), tanbehberdi - dashnom berdi, zilol suv - tiniq suv, kichik - mo‘jaz, tik — adil, nafis —nozik kabi.

Darsliklarda bola hissiyotiga ta’sir qiluvchi ko‘chma ma’nodagi badiiy ifodalar ko‘p qo‘llangan, ular ustida maqsadga muvofiq ishslash o‘quvchi nutqini jozibador qiladi, ularning nutqini adabiy tilga yaqinlashtiradi.

4. Yangi paydo bo‘lgan so‘z ma’nolari ustida ishslash. Sunday so‘zlar darslikda kam qo‘llanadi. Sunday so‘zlarning bolalar hayoti bilan bog‘liq bo‘lganlarini ajratib olib „Bilib qo‘ygan yaxshi“ birikmasi ostida ishlansa, o‘quvchining nutqi zamon bilan baravar rivojlanib boradi.

5. Grammatik atamalar ma’nosini bilan tanishtirish. Avvalo, grammatik atamalarning to‘g‘ri talaffuzi, imlosi o‘rgatiladi. Shundan so‘ng misollar asosida uning mazmuni ochiladi, so‘ngra o‘qitish va mashqlar bajarish orqali o‘quvchilarning atama ma’nosini to‘laqonli anglashlariga erishiladi.

Lug‘at ustida ishslashda quyidagi metodik usullardan foydalaniladi:

1. So‘z ma’nolarini taqqoslash va ularni sharhlash. Bu usul ko‘chma ma’noli so‘z va iboralar, paronim so‘zlar, shakldosh so‘zlar ma’nosini, imlosi, talaffuzini izohlashda qo‘llaniladi. Masalan, ziyrak - Zirak: odamning xususiyati (sezgirligi) - ziyrak; quloqqa taqiladigan taqinchoq - zirak. Bu so‘zlarning talaffuzi ham ikki xil.

2. So‘zlarni kuzatish usuli orqali ularning imlosini, ma’nosini va talaffuzini o‘rgatish. Masalan, o‘quvchilar guldon, gulchi, qutidor, gulli, gulsiz, guldor so‘zlarining tarkibini kuzatadilar, bu so‘zlar ma’nosidagi farqni izohlaydilar va tilning yangi so‘zlar hisobiga boyib borishini anglay boshlaydilar. Shu o‘rinda o‘qituvchi so‘zlarni o‘z so‘ziga aylantirish orqali aniq fikr yuritishga o‘rganish o‘quvchining burchi ekanini aytishi lozim.

Kuzatish usuli shakllari o‘zgarayotgan so‘zlarning imlosini o‘rgatishda ham qo‘llaniladi::

3. So‘zlarni belgilariga ko‘ra guruhash usuli. Guruhash aqliy faoliyat usuli bo‘lib, u alifbe mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda muhimdir. Bu usul so‘zlarning anglatayotgan ma’nosи, turkumi, yasalishi, imlosи, uyasi kabilarga ajratish imkonini beradi. Gurihash kuzatish va taqqoslash usuli bilan bog‘liq. So‘zlarni guruhash uchun, avvalo, ular kuzatiladi, so‘ng taqqoslanadi. Bu jarayonda ularning o‘xhash va farqli tomonlari ajratiladi: Masalan, qavm-qarindoshlik bo‘yicha guruhash quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Ota urug‘i: ota, amaki, arnma, dada, buvi, buvo.
2. Ona urug‘i: ona, xola, tog‘o, buvi, buvti.

Sifatlarda xususiyat bildiruvchi sifatlar (sho‘x, og‘ir, bosiq, aqli, aqlsiz, hissiz, andishali, dangasa, tanbal, ishchan, mehnatsevar va hokazfl.), ta’m bildiruvchi sifatlar (shirin, achchiq, nordon, taxir, sho‘r, mazali, bemaza, chuchmal va hokazo.) va shu kabilar guruhash musobaqasi tarzida uyushtirilishi mumkin. Ma’lum bir guruhdagi so‘zlar ro‘yxatini tuzish ishini alifbo asosida yozdirish ham mumkin. Bu jarayonda guruhash uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Bolalar o‘yinlari nomining lug‘atini tuzing.
2. Ertak nomlari ro‘yxatini tuzing.
3. Joy nomlari ro‘yxatini tuzing.

Bular o‘rganilayotgan mavzularga bog‘liq holda tashkil etiladi

So‘z tilning ma’no bildiradigan asosiy birligidir. So‘z va so‘z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud bo‘lgan barcha so‘z va iboralarning yig‘indisi lug‘at tarkibi yoki leksika deyiladi.

Leksikologiya o‘zbek tilining lug‘at tarkibini o‘rganadigan bo‘limdir. Leksikologiya lug‘at tarkibidagi so‘zlarning nutqda ma’no ifodalash xususiyati, qo‘llanish faolligi, boyib borishi, ba’zi so‘zlarning eskirib, iste’moldan chiqib ketishi, ma’no ko‘chish hodisasi kabilarni o‘rganadi. Shu sababli leksikologiya lug‘at ustida ishslash metodikasining lingvistik asosi hisoblanadi.

Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o‘zaro bog‘langan, mazmunga mos so‘z va so‘z birikmalarining ma’lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi.

Kishining lug‘ati qanchalik boy va rivojlangan bo‘lsa, uning nutqi ham shunchalik boy bo‘ladi; o‘z fikrini aniq va ifodali bayon etishiga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning tichun lug‘atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatl o‘stirishning muhim sharti hisoblanadi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili ulkan lug‘at boyligiga ega. Besh jildlik „O‘zbek tilining izohli lug‘ati“ da 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi berilgan bo‘lib, bular umumiy qo‘llaniladiganlaridir. Bunga o‘zbek tilida nashr etilgan turli terminologik lug‘atlarda, o‘zbek tili sinonimlari, antonimlari, frazeologik lug‘atlarida va turli izohli lug‘atlarda berilgan so‘zlar qo‘shilsa, lug‘at boyligi yana ming-minglab oshadi. Bulardan tashqari, juda ko‘p so‘zlar ko‘p ma’noni bildiradi. Masalan, shu izohli lug‘atda bosh so‘zining 40 dan ortiq asosiy va frazeologizm bilan bog‘langan ma’noda ishlatalishi berilgan.

Maktabda nutq o‘stirishning muhim vazifalaridan biri lug‘at ustida ishslashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo‘nalishlarini ajratish va asoslash, o‘quvchilarning lug‘atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi.

Maktabda lug‘at ustida ishslash metodikasi to‘rt asosiy yo‘nalishni ko‘zda tutadi:

1. O‘quvchilar lug‘atini boyitish, ya’ni yangi so‘zlarni, shuningdek, bolalar lug‘atida bo‘lgan ayrim so‘zlarning yangi ma’nolarini o‘zlashtirish. Ona tilining lug‘at boyligini bilib olish uchun o‘quvchi o‘z lug‘atiga har kuni 8-10 ta yangi so‘zni, shu jumladan, Alifbe darslarida 4-6 so‘zni qo‘shishi, ya’ni shu so‘zlar ma’nosini o‘zlashtirishi lozim.
2. O‘quvchilar lug‘atiga aniqlik kiritish. Bu o‘z ichiga quyidagilarni oladi:
1) o‘quvchi puxta o‘zlashtirmagan so‘zlarning ma’nosini to‘liq o‘zlashtirish, ya’ni shu so‘zlarni matnga kiritish, ma’nosini yaqin so‘zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo‘llari bilan ularning ma’nosiga aniqlik kiritish; 2) so‘zning kinoyali ma’nosini, ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirish; 3) so‘zlarning sinonimlarini, sinonim so‘zlarning ma’no qirralarini o‘zlashtirish; 4) ayrim frazeologik birlıklarning ma’nosini o‘zlashtirish.

3. Lug‘atni faollashtirish, ya’ni o‘quvchilar ma’nosini tushunadigan, ammo o‘z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lug‘atidagi so‘zlarni faol lug‘atiga o‘tkazish. Buning uchun shu so‘zlar ishtirokida so‘z birikmasi va gaplar tuziladi.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so‘zlarni o‘quvchilar faol lug‘atidan nofaol lug‘atiga o‘tkazish. Bunday so‘zlarga bolalarning nutq muhiti ta’sirida o‘zlashib qolgan adabiy til me’yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so‘zlashuv tilida qo‘llanadigan sodda so‘z va iboralar, she’r va va ijtimoiy guruhga oid so‘zlar kiradi. Adabiy til me’yori degan tushunchani o‘zlashtirgach, o‘quvchilar yuqorida izohlangan so‘zlar o‘rniga adabiy tildagi so‘zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so‘zlar, so‘zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so‘z va iboralar o‘quvchilarning faol lug‘atidan chiqib keta boshlaydi.

O‘quvchilar lug‘ati quyidagi manbalar asosida boyitiladi va takomillashtiriladi:

1. Atrof-muhitni: tabiatni, kishilarning hayoti va mehnat faoliyati, bolalarning o‘yini va o‘qish faoliyatini, kattalar bilan munosabatni kuzatish. Tabiat qo‘yniga, turli joylarga, muassasalarga ekskursiya vaqtida bolalar narsa va hodisalarni kuzatish bilan ko‘pgina yangi nom va iboralarni o‘rganadilar. Bu ekskursiyalar yuzasidan o‘tkazilgan suhbat vaqtida ularning bilimi chuqurlashtiriladi. ayrim so‘zlar ma’nosiga aniqlik kiritiladi.

Alifbe darsida bolalar lug‘ati ma’lum mavzularga oid so‘zlar hisobiga ham boyiydi. Ular lug‘atiga axloqiy tushunchalarni ifodalovchi yoqimtoy, shirinso ‘z, mehribon, haqqoniy, botir, mard, jasur, mehnatsevar kabi ko‘pgina so‘zlar qo‘shiladi.

Bolalar mustaqil o‘qishga o‘rganganlaridan keyin ular lug‘atiga kitob, gazeta, jurnal materiallari katta ta’sir qiladi. Shuning uchun ham sinfdan tashqari mustaqil o‘qish va unga rahbarlik shakllari o‘quvchilar lug‘atini boyitishning, nutqini o‘stirishning eng muhim manbalaridan hisoblanadi.

Maxsus mashqlar yordamida grammatika va imloni o'rganish darslari ko'pgina so'z va atamalarni o'zlashtirishga yordam beradi, o'quvchilar predmet, belgi, harakat, sanoq, tartib ifodalaydigan so'zlarni bilib oladilar. Bu darslarda o'quvchilar lug'ati tartibga solinadi, guruhlanadi, so'z tarkibi, so'z yasalishi, so'zlearning o'zgarishini o'rganish bilan esa lug'atga aniqlik kiritiladi; ular o'rgangan so'zlaridan o'z nutqlarida foydalana boshlaydilar, natijada lug'atlari faollashadi. O'quvchilar lug'ati maxsus lug'aviy-mantiqiy mashqlar yordamida ham boyiydi, tartibga tushadi.

Bulardan tashqari, kinofilm va tele ko'rsatuv matnlari, o'qituvchi va boshqa mакtab hamda maktabdan tashqari muassasalar xodimlarining nutqlari ham o'quvchilar lug'atini boyitish va takomillashtirish manbalari hisoblanadi.

Lug'atni boyitishda turli lug'atlar juda foydali qo'llanmadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun „Imlo lug'ati" mavjud. O'qituvchi ma'lumot uchun ham, material tanlash uchun ham turli lug'atlardan (o'zbek tilining sinonimlar, antonimlar, frazeologik lug'atlaridan, turli terminologik lug'atlardan) muvaffaqiyatli foydalanadi.

2. So'z ma'nosini tushuntirish.

So'zlearning ma'nosini tushuntirish o'quvchilar lug'atini boyitadi, nutqini o'stiradi. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarning atamalari ham tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlar qatoriga kiritiladi. Atamalarning ma'nosini tushuntirish mazkur so'z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, predmet atamasining ma'nosini tushuntirish bilan o'quvchilar predmet keng ma'noda qo'llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, tushunchalar predmet deyilishini bilib oladilar.

So'zning ma'nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmasligi kerak. Buning uchun o'qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma'nosini tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zлarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darsning qaysi o'rniда tushuntirishni belgilab oladi.

Alifbe kitoblaridagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar ma'nosini

bilmaydigan ayrim so‘zlar matnni o‘qishdan oldin tushuntiriladi.

Matnni o‘qish jarayonida so‘z ma’nosini tushuntirishga chek qo‘yish kerak.

Agar biror so‘zni matnni o‘qish vaqtida tushuntirish zaruriyati tug‘ilsa, matn mazmunidan o‘quvchilar diqqatini chalg‘itmagan holda shu so‘z ma’nosini qisqacha tushuntiriladi.

Ko‘chma ma’noda ishlatilgan obrazli so‘zlar va badiiy nutq birliklari matn o‘qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma’nosini matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi.

Metodikada so‘zlarni tushuntirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

1. So‘zni kontekst asosida tushuntirish. Bunda o‘quvchilar tushunmaydigan so‘z ularga tushunarli so‘zlar qo‘llangan gap (yoki matn) yordamida tushuntiriladi.
2. So‘z ma’nosini lug‘atdan va o‘qish kitoblarida matn ostida berilgan izohdan foydalanib tushuntirish
3. So‘z ma’nosini shu so‘zning ma’nodoshi yordamida tushuntirish.

Masalan, sabo — shabada, mudofaa — himoya, soz, anda — musiqachi, diyor — vatan, inshoot — bino, samo — osmon kabi. So‘zni sinonim tan-lash bilan tushuntirganda, shu so‘zning stilistik (uslubiy) ahamiyatini ham ko‘rsatish zarur.

4. Tanish bo‘limgan so‘z bilan ifodalangan tushunchani tanish bo‘lgan so‘z bilan ifodalangan tushunchaga (uning antonimiga) taqqos-lash orqali tushuntirish. Masalan, ishchan tushunchasini dangasa tushunchasiga, rostgo‘y so‘zini yolg‘onchi so‘ziga taqqoslab tushuntirish mumkin.

Ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘z va so‘z birikmalari, tasviriy vositalar, maqollar ham taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi.

5. So‘zni o‘ziga yaqin tushuncha — boshqacha ifoda etish bilan tushuntirish. Bunda tushuntiriladigan so‘zning izohi qisqa va aniq bo‘lishi kerak. Masalan, o‘zboshimchalik - o‘z xohishicha ish tutish, ishni o‘zi xohlaganicha bajarish; mutaxassis — biror hunar egasi; shunqor - uzoq uchadigan ko‘zi o‘tkir qush; mesh — mol terisidan tikilgan idish; guldon — gul solib qo‘yiladigan idish va boshq.

Ba'zi so'zlar ularning vazifasini izohlash orqali tushuntiriladi. Masalan, kombayn — bir vaqtning o'zida donni o'radigan, yanchadigan, tozalaydigan qishloq xo'jalik mashinasi; ekskavator — bir vaqtning o'zida erni qazib tuproqni yuk mashinasiga ortadigan mashina; aerodrom — samolyotlar turadigan, uchib ketadigan yoki kelib qo'nadigan joy va hokazo.

6. So'zni predmetning asosiy belgisini izohlash orqali tushuntirish.

Masalan, yantoq - suvsiz joyda o'sadigan ninasimon tikanli o'simlik; akula — okeanlarda yashaydigan juda katta yirtqich baliq.

7. Axloqiy, mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi so'zlarning ma'nosini misollar yordamida tushuntirish. Buning uchun o'quvchilar o'rgangan badiiy asardan axloqiy fazilatga ega bo'lgan asar qahramonining qilgan ishlari tahlil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, so'z ma'nosini tushuntirish ustida ishslash o'quvchilar lug'atini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi.

Ma'nodosh so'zlar ustida ishslash

Ma'nodosh so'zlar (sinonimlar) talaffuzi, yozilishi bar xil bo'lgan bir umumiy tushuncha (ma'no) ifodalaydigan so'zlardir. Sinonimlar bir-biridan qo'shimcha ma'no qirrasi, emotsional bo'yog'i, qo'llanilishi jihatidan o'zaro farqlanadi. Katta, ulug', buyuk, zo'r, aZim, ulkan, bahaybat, haybatli, yirik, gigant sinonimik qatorini tashkil qilgan so'zlardan katta so'zi keng tushunchani anglatib, aniq tushunchaga nisbatan ham, mavhum tushunchaga nisbatan ham ishlatilaveradi. Ulug', biiyuk, zo'r, awn, ulkan so'zlari hajmi ancha katta bo'lgan narsalarga, bahaybat, haybatli so'zlari esa o'lchovi juda katta bo'lgan narsalarga nisbatan ishlatiladi. Yirik kam ishlatiladi. Gigant kitobiy uslubga xos bo'lib, asosanjoy, qurilishga nisbatan qo'llanadi.

Sinonimlar tilni leksik tomondan boyitadi, shuning uchun bunday so'zlar bilan ishslash juda muhim.

Boshlang'ich sinflarda sinonim haqida nazariy ma'lumot berilmaydi, ammo sinonimlar haqidagi tushuncha amaliy mashq yordamida shakllantiriladi.

Sinonimlar bilan ishslash elementar tarzda 1-sinfdan boshlanadi: o'quvchilar

berilgan so‘zning sinonimini topishga, boshqacha qilib qanday aytish mumkinligini tushuntirishga o‘rgatiladi.

O‘quvchilar lug‘atini ma’nodosh va zid ma’noli so‘zlar bilan boyitish o‘z fikrini aniq, ravon va ifodali bayon etishga yordam beradi.

Ko‘p ma’noli va shakldosh so‘zlar ustida ishlash

O‘quvchilar nutqida ko‘p ma’noli so‘zlar uchrab turadi, ammo ular ko‘p ma’noli so‘z ekanini tushunib yetmaydilar.

O‘qituvchi badiiy asar ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarni ko‘chma ma’nodagi so‘zlar bilan tanishtirish orqali ayrim so‘zlar ko‘p ma’noda ishlatilishini tushuntirib boradi. Shu bilan birga, maxsus mashqlar ham ishlatiladi:

1. So‘zlarning so‘z birikmasidagi ma’nosini qiyoslash: soat yurdi, poezd yurdi, ukam yurdi; tosh yo ‘I, tosh yurak‘; kumush qoshiq, kumush osmon, kumush qish.

2. Gaplarni o‘qib, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini aytish: Bu yil yoz issiq bo ‘Idi. Sen o‘rtog‘ingga xat yoz.

Boshlang‘ich sinflarda ko‘p ma’noli va shakldosh (omonim) so‘zlar yuzasidan nazariy ma’lumot berilmaydi, bunday tushunchalarni shakllantirishga tayyorgarlik ko‘riladi, xolos.

O‘quvchilar nutqini boyitishda maqollar katta ahamiyat kasb etadi. Maqollar o‘qish uchun ham, suhbat uchun ham, hikoya tuzish uchun ham, grammatik tahlil va yozuv uchun ham juda qulay materialdir. Ular ixcham, sermazmun va ta’sirchan bo‘ladi; maqollar o‘quvchilarning badiiy didini o‘siradi, nutqqa e’tibor bilan qarashga, to‘g‘ri, mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi, estetik tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Alifbe kitoblarida mavzuga bog‘liq holda, yozuv darsliklarida esa mashq matnlari ichida xilma-xil mavzularda juda ko‘p maqollar beriladi.

Natijada o‘rni bilan maqollardan foydalana boshlaydilar.

O‘quvchilar maqollarni yoqtiradilar, shuning uchun ham maqollar bilan berilgan topshiriqlarni jon-dildan bajaradilar. O‘qituvchi shularni hisobga olib, maqollar bilan xilma-xil mashqlar ishlatish orqali o‘quvchilarga so‘zlarning majoziy ma’nosini, ko‘p ma’no ifodalashini amaliy singdirib boradi.

Mantiqiy mashqlar

Mantiqiy mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to‘g‘ri fikrlash usullarini o‘rgatadi. O‘quvchi mакtabga kelganda, ko‘p lug‘at boyligiga ega bo‘lsa ham, odatda, tafakkurning taqqoslash, qarshi qo‘yish, umumlashtirish, guruhlash usullaridan foydalanishni bilmaydi (ayniqsa, bilish faoliyatining obyekti aniq predmet emas, uni ifodalovchi so‘zlar bo‘lsa). Mantiqiy mashqlarning vazifasi u yoki bu narsa va hodisalar bilan tanishish

asosida bolalarni predmet va hodisalardan muhimini, umumiysini ajratishga, so‘z bilan aniq ifodalashga o‘rgatish, bolalarga mantiqiy usullar tizimini o‘rgatish bilan bilimini material tomondan boyitish va uni aqliy tomondan o‘stirish hisoblanadi.

Mantiqiy mashqlar bolalarning so‘z boyligi va tilining umumiyligi o‘sishida katta ahamiyatga ega bo‘lib, lug‘at ishi va tilga oid boshqa ishlar bilan bog‘lab olib boriladi. Logik mashqlar juda xilma-xil:

1. Narsalarning mavzuga tegishli guruhini tuzish: ust kiyimlar (ko‘ylak, kostyum,...) va oyoq kiyimlar (botinka, tuqli, ..); uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar kabi. Bunda bolalar „Bu nima?” so‘rog‘iga javob berishga o‘rgatiladi:

Bu nima? - Avtobus. Avtobus nima? — Mashina.

2. Bir turdag‘i narsalarni sanab ko‘rsatish va umumlashtiruvchi bir so‘z bilan nomlash. Masalan, slol, stul, shkaflarm bir so‘z bilan qanday nomlash mumkin? (Mebel)

3. Berilgan narsalardan bir guruhga kirmaydiganlarini ajratish.

Masalan, qalam, chizg‘ich, o‘chirg‘ich, stul ko‘rsatiladi, o‘quvchilar o‘quv qurollarini ajratadilar, stul o‘quv quroliga kirmasligini, mebel ekanini aytadilar. Bunday mashq o‘yin tariqasida o‘tkazilishi ham mumkin: ma’lum so‘zlar berilib, ortiqchasini topish va nima uchun ortiqcha ekanini tushuntirish talab etiladi: qaldirg‘och, chumchuq, mushuk, musicha.

4. Predmet nomlari va belgi bildirgan so‘zlarni guruhlarga ajratish.

Bunda so‘zlar choynak, tesha, bolta, piyola, arra, tarelka kabi aralash beriladi. O‘quvchilar guruhlab, idishlar nomi: choynak, piyola, ... ; ish qurollari nomi:

tesha, bolta, ... kabi aytadilar. Narsa belgisini bildirgan so‘zlar ham aralash beriladi, bolalar to‘rt guruhga (rang, maza, shakl, xususiyat) ajratadilar.

5. Qarama-qarshi qo‘yish bilan umumlashtirish: qaldirg‘och, chumchuq, bulbul- qushlar, tovuq, xo‘roz, kurkalar-chi? (Parrandalar.)

Mantiqiy mashqlar sermazmun bo‘lishi, o‘quvchilarning tajribasi bilan bog‘lanishi, ularni to‘g‘ri fikrlashga o‘rgatishi, bilimlariga aniqlik kiritishi va tartibga solishga xizmat qilishi lozim. Bunday mashqlardan o‘rni bilan boshqa darslarda ham, o‘qish va grammatika darslarida ham foydalaniladi.

Savod o‘rgatish darslarida lug‘at ustida ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari

Bola birinchi sinfga kelgach, lug‘ati tezlik bilan boyiydi. Chunki, uning uchun maktabdagи hamma narsa yangi ana shularning nomini o‘zlashtiraboshlaydi. Boshlang‘ich sinflarda lug‘at ishini keng olib borish o‘quvchilarning savodxonligini oshirish uchun, grammatik qonun-qoidalarni puxta bilish uchun, nutqni o‘stirish uchun va mantiqiy fikrlash malakasini egallashda muhim ahamiyatga egadir. Lug‘at ishi bolalarni ko‘p gapirtirish, o‘qiganlarni ongli ravishda o‘zlashtirish, shuningdek, sinonim, omonim, antonim jihatidan bir-biriga qarama-qarshi bo‘lishini ayniqsa, bog‘lanishli matnlarda so‘zlarning yangi-yangi ma’no kasb etishini tushunishga o‘rgatiladi.

Dasturning bunday murakkab talablarini amalga oshirishda, o‘quvchini juda yoshligidan boshlab so‘z ustasi qilib y etishtirish uchun alifbe davrida olib boriladigan lug‘at ishlarini o‘qish darslarida murakkab tarzda davom ettirish kerak. Bu esa o‘qituvchidan yuksak mahorat talab qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi darslik bilan ishlar ekan, so‘zlar ifoda va iboralar ustida ishlab berish orqali tizimli ravishda amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich sinf dasturida lug‘at ishiga katta e’tibor beriladi. Chunonchi, o‘quvchilarning har bir so‘zini tushungan holda o‘qishlari va o‘z nutqlarida bu so‘zni o‘rinli ishlatishlari uchun birinchi sinfdanoq lug‘at ustidagi ishlar avval og‘zaki, o‘quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab esa, jadal ravishda yozma

ifodalab borilishi kerak, o‘quvchilar shakl jihatidan turlicha bo‘lgan so‘zlar bir xil yoki yaqin ma’no bildirishini ba’zi so‘zlarning ma’no jihatidan bir-biriga qarama-qarshi bo‘lishini, ayniqsa, bog‘lanishli matnlarda so‘zlarning yangi-yangi ma’no kasb etishini tushunishga o‘rgatadi.

Dasturning bunday murakkab talablarini amalga oshirishda o‘quvchini juda yoshligidan boshlab so‘z ustasi qilib etishtirish uchun, alifbe davrida olib boriladigan lug‘at ishlarini o‘qish darslarida murakkab tarzda davom ettirish kerak. Bu esa o‘qituvchidan yuksak mahorat talab etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi maktabga kelar ekan, u sinfdagi ko‘pgina buyumlarni ko‘radi, lekin ularning ayrimlarini nomi nima, qanday belgisi bor, turmushda qanday ahamiyat kasb etadi, ayrim narsalar hakida aniq tasavvurga ega bo‘lmaydi. Bunday narsalar o‘qituvchi tomonidan shu kunning talabi asosida astasekinlik bilan o‘rgatib boriladi. Og‘zaki suhabat jarayonida tushunishi o‘yin notanish so‘zlar, so‘z birikmali tushuntirib beriladi. Masalan, o‘qituvchi sinf xonasidagi stol, stul, parta, doska, shkaf va turli xil stendlarda aks etgan ko‘rgazmalar orqali o‘quvchilarga lug‘at ustida ishslash imkoniyatlari yaratiladi. Shu bilan birga o‘quvchilarni so‘z boyligini oshirishda tarqatma materiallardan unumli foydalanish yangi uchraydigan so‘zlarni lug‘at daftariga yozib qo‘yish, ma’nosini izohlash, yangi uchraydigan so‘zlarga gaplar tuzish, ma’no va mohiyatini anglab etish orqali o‘quvchilarda lug‘at boyligi oshib boradi. O‘quvchi to‘g‘ri yozish malakasini egallagach, ularga o‘rgangan predmetlarining nomlarini notanish va noaniq so‘zlarni lug‘at daftarga qayd ettirib boriladi.

Kun sayin o‘zbek tilimiz yangi-yangi so‘z va iboralar bilan o‘z davrasini kengaytirib bormoqda. Shakli har-xil bo‘lsa ham, ma’nosi bir-biriga yaqin so‘zlarni katta, buyuk, ulug‘, qarama-qarshi ma’noli so‘zlarni baland-past, kattakichik, yosh-qari, oq-qora, yaxshi-yomon, achchiq-shirin kabi so‘zlardagi grammatik qonun-qoidalar bilan isbotlash uchun o‘quvchilarga misollar topish o‘rgatib boriladi. Biroq yuqoridagi fikrlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tushunarli bo‘lavermaydi. Shuning uchun lug‘at ustida ishslash talab qilinadi.

Lug‘at ustida ishslash og‘zaki va yozma shaklda olib boriladi. Og‘zaki

shakldagi mashg‘ulotda o‘quvchi uchun o‘qish, yozish qiyin bo‘lgan so‘zlarning mazmuni tushuntiriladi, talaffuzi va yozilishi o‘rgatiladi. O‘quvchilar ana shu so‘zlardan foydalanib, mustaqil gap tuzib o‘rgatiladi. Yozma shakldagi mashg‘ulotda esa, qiyin so‘zlar ustida yozma ishlar olib boriladi. Matnni diqqat bilan kuzatish natijasida tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlar ajratib olinadi. Yangi, qiyin so‘zlarni yakka-yakka yozdirish, ularni konteks ichida qo‘llash yo‘li bilan shu so‘zlarning imlosi o‘rgatiladi. Lug‘at ustida ishslash jarayonida o‘quvchilarning bilim doirasini hisobga olish matndagi murakkab so‘zlarni belgilash zarur. Masalan: ulgurji, marketing boj, valyuta, ayriboshlash, raqobat, auktsion, a’yon, sarbon, karvon, qofiya, xavf va boshqalar. Shu so‘zlar ishtirokida ikki uchta gap tuzib o‘tilgan mavzuga bog‘lab tushuntiriladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darsi tashkil etilgandan so‘ng, hilma-xil mashqlar, savol javoblar orqali qiyin so‘zlarni o‘quvchilar qay darajada o‘zlashtirganliklari tekshirib ko‘riladi. O‘quvchini doskaga chiroylı avvalgi darslarda o‘tilgan so‘zlardan ikki uchtasining ma’nosi qanday o‘qilishi so‘raladi. Bunda kesma harflardan foydalaniladi. O‘quvchi notanish so‘zni aytganda o‘qituvchi va sinfdagi barcha o‘quvchilar so‘zning talaffuzini dikkat bilan eshitadilar. Doskadagi o‘quvchi so‘ralgan ikki uch so‘zni ikkilanmay dadil misollar bilan aytib bersa o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantiriladi. Ikkinchı o‘quvchidan so‘ralganda, so‘zlarni ikkilanib aytsa avval noto‘g‘ri aytib, so‘ngra uni o‘zi tuzatib to‘g‘ri talaffuz qilsa o‘qituvchi uning u yoki bu so‘zda ikkilanganligini eslatib kelgusi darsga puxta o‘zlashtirib kelishni topshiradi. O‘qituvchi o‘quvchilarning notanish so‘zlarni qanday o‘zlashtirib borayotganliklarini tekshirib turadi. O‘quvchilarning notanish so‘zlarni qanchalik o‘zlashtirganliklari tekshirilganda, ularning diqqatini lug‘at ustida ishslashga jalb etish va bu ishga ularni qiziqtirishga e’tibor beriladi. Matnda uchragan notanish so‘zlar ishtirok etgan gaplardan ko‘rgazmali qurol tayyorlanadi. Notanish so‘zlarni faol lug‘at fondiga aylantirish uchun har-xil izchil usullardan foydalaniladi. So‘zlarni yodlab bilib olish ham notanish so‘zni bilib olishga yordam beradi. O‘quvchilar lug‘atining boyib borishini hisobga olish va baholab berish zarur.

Lug‘at ishi orqali o‘qishning ongli bo‘lishi va imloni o‘zlashtirish ta’minlanadi, o‘quvchining dunyoqarashi shakllanadi, unda vatanparvarlik hissi tarbiyalanadi.

Alifbe davrida va undan keyingi o‘qish darslarida matndagi tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarning ma’nosi tushuntiriladi. Matndagi obrazli ifodalar, qarama-qarshi ma’noli, ma’nosi bir biriga yaqin bo‘lgan so‘zlar o‘quvchilarga toptiriladi va shu so‘zlardan o‘z nutqida foydalanishga o‘rgatiladi.

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan lug‘at ustida ish olib borganda quyidagilarga e’tibor berishi kerak.

1. Har bir so‘zning tallaffuzini analiz qilish ifodali o‘qish o‘qitilgan matnni reja asosida o‘quvchilarga kichik-kichik savol berib so‘zlatish.
2. Sinonim, antonim, omonim asl va ko‘chma ma’noli so‘zlar bilan ishlash.
3. Matndagi tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarga o‘quvchilar diqqatini tortish, matndagi so‘zning ma’nosini tushuntirish va og‘zaki nutqdagi to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish.
4. O‘quvchilarning adabiy til normalariga, qonun-qoidalariga bo‘ysundirilgan nutqda so‘zlashini ta’minlash.
5. O‘quvchilar nutqida mahalliy shevalar ta’sirining bo‘lmasligiga erishish.
6. O‘quvchilarni barcha uchun tushunarli qilib so‘zlashga va noo‘rin (innay-keyin, shunday qilib, haligi-haligi) so‘zlardan yiroq bo‘lishga odatlantirish.
7. O‘quvchining matndagi har bir so‘ziga shaxsiy munosabatni bildirib borishga o‘rgatib borish. Masalan, 1-sinf o‘quvchisi «alifbe» dan yu harfi va tovushi bilan tanishtirilayotganda «buyuk» so‘zini o‘qiydi shakli har bo‘lib ma’nosi bir-biriga yaqin so‘zni topishni o‘quvchi o‘rtog‘idan so‘raydi. Agar o‘quvchi «buyuk» so‘zidan avvalroq o‘qigan «katta» so‘zini topa olsa bu 1-sinf o‘quvchisi uchun katta yutuqdir. Bolalar iloji boricha, mustaqil holda so‘zning ma’nosini, talaffuzini tushunishga harakat qilishsin. Agar tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zni yoki fikrni o‘qituvchi yoramida bilib olaversa, unda o‘quvchining ijodiy fikrlash qobiliyati, tafakkuri o‘smay qolishi mumkin.
8. O‘quvchi o‘tilganlarni hikoya qilib berganda talaffuziga, urg‘usiga

alohida e'tibor berishga odatlantirish zarur. Agar biror so'zni noto'g'ri talaffuz etsa, uni bir necha marta takrorlatish hatto yodlatish ham mumkin. Ma'lumki o'qituvchi bir darsni zamon talabi asosida o'tkazish uchun juda ko'p adabiyotlar bilan tanishish, o'quvchilarning bilim darajasini, yoshi psixologik xususiyatlarini, iqtidorini hisobga olish zarur. O'qituvchi nafaqat lug'at ustida ishlashni, balki ularni estetik tarbiyasini, e'tiqodini ham shakllantirib borish kerak. Shunda biz kutgan natijaga erishamiz.

Ona tili va o'qish darslarida lug'at ustida ishlashning zamonaviy usullari

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tilining tizimlikka rioya qilgan holda bolalar nimalarni o'rganishlarini va dasturni bilishlari zarur, har bir darsda lug'at ustida ishlashga alohida e'tibor berilishi lozim. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilari fonetikaning unli va undoshlar, xarf va tovush, xarf birikmalarining qo'llanilishi, bosh va kichik harf kabi ma'lumotlar bilan tanishadilar.

Keyinchalik kursdan fonetika, orfoepik, grafika va orfografikdan nutq tovushlari, ularning hosil bo'lishi, unli va undosh tovushlar, jarangli va jarangsiz undosh tovushlar, bo'g'in, bo'g'in ko'chirish, urg'u, urg'uli va urg'usiz bo'g'in, urg'uning ma'no ajratishdagi roli (olma-ot, olma-fe'l, atlas-mato, atlas-o'quv quroli) kabi mavzularni o'tish uchun o'qituvchi egallagan bilimlariga asoslanishi lozim.

O'qituvchi ta'limning har bir bosqichida o'quvchining nutq taraqqiyotida bo'ladigan o'zgarishlarini bilishi va unga tayanishi lozim. Har bir darsda o'quvchining lug'at boyligi, so'z boyligi oshib borishi lozim.

O'quvchilarning lug'at ustida ishlashda, so'z boyligini oshirishda o'qituvchi zamonaviy usullardan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bular quyidagilar.

1. Tushuntirish-namoyish etish metodi. O'qituvchi tomonidan bilimlar tayyor xolda beriladi. Ona tilining qonun-qoidalari tushuntiriladi va

mustahkamlanadi. Bu darsda o‘quvchilar bayon qilinayotgan bilimlarni tinglaydilar va xotirada saqlashga xarakat qilishlari kerak.

2. Muammoni bayon qilish metodi. O‘qituvchi o‘quvchilar oldigi ma’lum bir muammo qo‘yadi va ularning mustaqil aqliy faoliyat ko‘rsatishlarini ta’minlash orqali bu muammoni hal qila boshlaydi.
3. Qisman izlanuvchanlik metodi. Ta’limning bu metodi shu bilan xarakterliki, o‘quvchi dars jarayonida ma’lum bir o‘quv muammosini qo‘yadi, ammo uni mustaqil hal qilish yo‘llarini ko‘rsatmaydi. Har bir o‘quvchi muammoni mustaqil hal qilish uchun o‘zicha izlanadi, ijodiy faoliyat ko‘rsatadi. Muammoning o‘qituvchi tomonidan qo‘yilishi metodni qisman ijodiy qilib qo‘yadi.
Ayniqsa, izlash ya’ni so‘zlarni topishga intilish, qidirish kabi topshiriqlar o‘quvchilarni yanada lug‘atini boyishga olib keladi, Uni bog‘lanishli nutqi ham rivojlanadi, har bir so‘zni to‘g‘ri aytishga, talffuzi, nutq malakasi shakllanadi. Shunday qilib, Savod o‘rgatish darslarida bunday metodlardan foydalanish o‘quvchilarning til materiallariga qiziqishini kuchaytiradi, o‘quv-biluv faoliyatini faollashtiradi, til hodisalarini mustaqil tahlil qilishga o‘rganishi orqali ularda mustaqillik shakllanadi, o‘quvchilarni kommunikativ faoliyatiga puxta tayyorlash imkonini yaratadi.
So‘z va bo‘g‘inlarni o‘rgatishda tovush va xarflarni alohida-alohida aytib o‘qimaslikka, balki tovush va harflarni bo‘g‘inda to‘g‘ri qo‘shib talaffuz qilishga, so‘zlarni og‘zaki nutqdagi kabi yaxlit xolda tovushlar uyg‘unligiga rioya qilib o‘qishga odatlantiriladi.

Alifbe darslarida shu metodlardan foydalanib dars o‘tish yaxshi samarali natijalar beradi.

Lug‘at ustida ishlashning shakli, usullari va vositalari.

Savod o‘rgatish darslarida lug‘at minutini o‘tkazishga hozirlik ko‘radi.

Ko‘rgazmali qurol tayyorlanadi.

So‘zлами bo‘g‘inga, bo‘g‘inni esa unli va undosh tovushlarga ajratish shuningdek, tovushlardan bo‘g‘in, bo‘g‘inlardan so‘z, so‘zlardan gap tuzishga quyidagicha ko‘rgazmali qurol hozirlash mumkin.

(unli tovushni qizil, undosh tovushni ko‘k rangda yozish ma’qul).

So‘zlar Bo‘g‘inga bo‘lish Unli tovush Undosh tovush

Singlim Sing-lim 2 5

Zulfiya Zul-fiya 3 3

Paxtakor Pax-ta-kor 3 5

O‘qituvchi o‘quvchilardan «asbob» so‘zi necha bo‘g‘in? Unli tovushlarni ayting, undosh tovushlarni ayting, yana talaffuz qiling. Avvalda o‘qituvchi har bir so‘zni talaffuz qilib ko‘rsatadi. So‘ngra har bir so‘z talaffuzi o‘quvchilarga mashq qildiriladi. Ba’zan o‘quvchilar stul, stakan deb talaffuz qilsa, uni faol o‘quvchilar tuzatadi. Bunda o‘quvchi har bir so‘zni to‘g‘ri, aniq talaffuz qilishga harakat qiladi. Chunki uning xatosini o‘qituvchi emas, balki o‘z sinfdoshi tuzatyapti.

- Stul so‘zi necha bo‘g‘in?
- Unli tovush nechta?
- Undosh tovushlar-chi?
- Yana talaffuz qiling?

Shu so‘zlar ishtirokida og‘zaki gaplar tuzdirish mumkin.

O‘qituvchi o‘quvchilarga so‘zlarni talaffuz qilganda, to‘g‘ri ravon talaffuz qilish kerakligini tushuntirmog‘i lozim.

«Imlo lug‘ati» bilan ishslash.

Imlo lug‘ati ustida ishslash alifboni o‘rganish bilan bog‘liq. O‘quvchilar alifboni yaxshi bilib olgach, imlo lug‘ati bilan ishslashga o‘tiladi. Bunda ko‘proq qiyin so‘zlarni o‘rgatish ko‘zda tutiladi. Masalan, p va f harflarining yozilishi o‘tilgandan keyin fosh, payvand, afsona, insof, kifoya, parvona, vazifa kabi so‘zlarni tanlaydi. Dars boshlanishi oldidan barcha o‘quvchilarning «Imlo lug‘ati» bor - yo‘qligi aniqlanadi, kimda lug‘at bo‘lmasa, tayyorlab qo‘yilgan lug‘atlardan beriladi, vazifa tushuntiriladi. O‘quvchilarning diqqati lug‘at bilan ishslashga jalb qilinadi. O‘qituvchi vaqtini belgilab qo‘yib, birinchi so‘z (fosh) ni aytadi.

O‘quvchilar bu so‘zni lug‘atdan topishga barovar kirishadilar. So‘zni birinchi topgan o‘quvchi qo‘lini ko‘taradi. Shu usul bilan qolgan so‘zlar ham

lug‘atdan toptiriladi. Dastlabki bir so‘zni lug‘atdan topish uchun 2-3 daqiqa sarflansa, keyinchalik muntazam olib borilgan mashq natijasida, bir so‘zni topish uchun 15-20 sekund kifoya qiladi.

Bunda ba’zan shunday ham bo‘ladi: o‘quvchilar ayrim so‘zlarning birinchi harfini bilmaganliklaridan ularni lug‘atdan topa olmaydilar. Bu ko‘proq p yoki f bilan, x va h bilan boshlanuvchi so‘zlarda yuz beradi. O‘quvchi bu so‘zlarni oldin o‘zi bilgan harfdan izlaydi. Bu o‘rinda topilmagan ikkinchi harfdan qidirish lozimligi aytildi. Mashqning bu turi, bir tomondan o‘quvchilarni alfavitdan foydalanishga o‘rgatsa, ikkinchi tomondan topilgan so‘zlarning yozilishini esda qoldirishga yordam beradi. Odatda har bir dars ma’lum darajada «Imlo lug‘ati» dan foydalanishni taqozo etadi. Boshqa fanlarni o‘qitishda ham «Imlo lug‘ati»ga murojat qilishga to‘g‘ri keladi. Shunga ko‘ra «Imlo lug‘ati» qo‘llanma sifatida har bir o‘quvchida bo‘lishi zarur.

Maktab «Imlo lug‘ati» quyidagi talablarga javob berishi kerak.

- 1) O‘quvchillarning so‘z boyligini hisobga olish:
- 2) Maktab darsliklari va qo‘llanmalari leksikasi lug‘at uchun asos bo‘lishi lozim. Maktab va bolalar hayotiga oid so‘zlar hamda o‘quvchilarning yozma ishlarida ko‘pchilik o‘quvchilar xato qilishi mumkin bo‘lgan so‘zlar lug‘atdan joy olishi kerak.
- 3) Zarur so‘zlarning urg‘usi ko‘rsatiladi. Bu esa o‘quvchi nutqining o‘sishiga, adabiy talaffuz normalarining o‘quvchilar tomonidan mustaqil egallashiga yordam beradi.
- 4) Lug‘atda orfografik qoidalar bo‘lsa, yana ham yaxshi.

1994 yilda «O‘qituvchi» nashriyotida bosilib chiqqan «Imlo lug‘at» ga o‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalar ham kiritilgan.

«Imlo lug‘ati» bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarga xilma-xil topshiriqlar beriladi.

Talaffuzi bilan yozilishiga mos kelmaydigan so‘zлarni lug‘atdan toptirish, ularni daftarlariiga ko‘chirtirish, keyin zarur topilsa, ular ishtirokida gap tuzdirish.

Masalan, o unli tovushning yozilishini mustahkamlashda «imlo lug‘ati» ning

“A” harfiga berilgan so‘zlar ichida o unlisining cho‘ziqroq va aniqroq talaffuz etilishiga, urg‘uli bo‘g‘inlarda ochiq o‘tovushiga yaqin aytishiga, urg‘usiz bo‘g‘inlarda a unlisiga yaqin aytishiga hamda so‘zlarning oxirga urg‘usiz yopiq bo‘g‘inida noaniqroq i unlisiga yaqin aytishiga beshtadan misol topish va ularni daftarga ko‘chirish (bular uyga vazifa qilib berilishi ham mumkin).

Abgor

Avvalo

Avlod

Avom

Bu so‘zlarning qaysi biri o‘quvchiga tushunarli bo‘lmasa, uning ma’nosi izohlanadi. Yozilishini esda qoldirishi kerakligi uqtiriladi. Talaffuz qoidalariga rioya qilingan holda o‘qitiladi.

O‘quvchilar chiroylar va xatosiz yozayotganlarida «imlo lug‘ati» ga ham katta e’tibor berishi kerak.

Harflarni almashtirmasdan o‘z o‘rniga yozish kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari dasturiga muvofiq o‘zining fonetik qurilishi so‘zni bo‘g‘inlarga ajratish, uning ma’noli qismlari haqida ma’lumot olish bilan birga bu mavzuga aloqador bo‘lgan imlo qoidalarini amalda qo‘llanish malakasini egallab boradilar.

O‘quvchilarning ana shu imlo qoidalarini amalda qo‘llash bilish malakasini mustahkamlashda ko‘chirib yozish mashqidan foydalanish maqsadga muvofiqli. Ko‘chirib yozish mashqi birinchi sinfdan boshlab o‘tkaziladi.

Birinchi sinfda o‘quvchilarning bo‘g‘in ko‘chirishi, unli va undosh harflar imlosi, kishilar ismi, familiyasi, hayvonlarga qo‘yilgan nomlarning bosh harf bilan yozilishi yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlashda ko‘chirib yozish mashqidan foydalanish yaxshi natija beradi. Birinchi sinfning ikkinchi yarmi va ikkinchi sinfdan boshlab ko‘chirib yozish mashqi ancha murakkablashib o‘quvchilarni grammatik-orfografik topshiriqlarni ko‘chirib yozishga o‘rgatib boriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining orfografik bilimlarini mustahkamlashda to‘la ko‘chirib yozish mashqining xilma-xil turlarini qo‘llab,

yaxshi natijalarga erishmoqdalar. Ayniqsa, turli grammatik orfografik topshiriqlarini ko‘chirib yozish mashqini o‘tkazishda boshlang‘ich sinf darslarida berilgan mashqlardan tashqari o‘qituvchi tomonidan tuzilgan jadval, turli xil sxema va ko‘rgazmalardan ma’lum orfogrammatikni to‘la yoki tanlab ko‘chirish o‘quvchilarni eng sevgan ma’lumoti bo‘lib qolmoqda.

Boshlang‘ich sinflarda «bo‘g‘in» mavzusini mustaxkamlashda o‘qituvchi doskaga bir qator so‘z bo‘g‘inlarini yozib qo‘yadi, o‘quvchilar esa ularga mos keladigan bo‘g‘inlarni topib hosil bo‘lgan so‘zlarni daftariga yozadilar. Masalan,

Tak..., bul , mak..., ki... ,

Bunday mashqlar orqali o‘quvchilar so‘zlarning bo‘g‘inlardan tuzilishi, unli tovushlarning bo‘g‘in qilishini bilib oladilar.

Unlilar mavzusini o‘tishda esa o‘quvchilarga «imlo lug‘ati»dan ma’lum orfogrammaga oid so‘zlar tanlash va daftarga ko‘chirish topshiriladi. Masalan birinchi bo‘g‘inda a ikkinchi bo‘g‘inda o unlisi bo‘lgan 5 ta so‘z topib daftaringizga yozing va bu so‘zlarning aytilishi bilan yozilishini bilib oling, degan topshiriq beridladi. O‘quvchilar lug‘atdan baho, bahor, jahon, havo, shamol kabi so‘zlarni topib, ularni aytilishi va yozilishini bilib oladilar. Ular imlo lug‘ati bilan ishslashga o‘rganib boradilar.

O‘quvchilarning eng sevimli ko‘chirib yozish mashqlaridan biri rasmi kartochkalarga mos so‘zlarni tanlash va ularni yozishdir. O‘qituvchi biror orfogrammaga oid rasmi kartochkani doskaga iladi, o‘quvchilar unda tasvirlangan tasvirni narsaninig nomini aytadilarva biror o‘quvchi doskaga chiqib uni yozib boradi. Ko‘chirib yozishning bu turi yoddan yozish va lug‘at diktantga o‘xshab ketadi.

P va f undoshlari bilan ishslashda doskaga fabrika, piyola, piyozi, forma, fantan kabi so‘zlar yoziladi va boshqalarga ularni ikki ustunga ajratib yozish topshiriladi. O‘quvchilar topshiriqni bajarib p va f undoshlari ostiga chizadilar, ularning aytilishi bilan yozilishini farqlaydilar.

Tovush va bo‘g‘inlarning birikkan holatda bo‘lishga alohida e’tiborni qaratish lozim. O‘quvchilar nutqini o‘stirish savodga o‘rgatish davrida so‘z ustida

ishlashga doir mashqlar asosida amalga oshiriladi. Nutq o'stirishning so'z va lug'at ustida ishslash, bog'lanishli nutq ustida ishslash kabi qator yo'naliishlari bevosita bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonida savodga o'rgatishning tahlil tarkibiga ko'ra yaxlit xolat nomoyon bo'ladi.

Yozuv darslarida mashqlarni o'tkazish, Alifbe darslarida badiiy asarlarni tahlil etish o'quvchilarni lug'at ustida ishslashga qiziqtiradi, so'z boyligini oshiradi. O'qituvchi lug'at mashqlarini o'quvchilarga tushuntirishda, zamonaviy usullar yordamida darsni olib boradi. O'qituvchi o'quvchilarga ko'rgazmali qurollar yordamida, test, anketa so'rovi kartochkalar va jihozlardan foydalanadi.

Savod o'rgatish davri o'qishga o'rgatish darslarida tovush, bo'g'in, gap va matn ustida ishslashda pedagogik texnologiyalardan foydalanish

1-sinf o'qituvchisi 6-7 yoshli bolalarning ruhiy va fiziologik xususiyatlarini yaxshi bilishi lozim. Yetti yoshli bolalar bir turdag'i mashg'ulot uzoq davom etsa, tez charchaydilar. O'qituvchi buni hisobga olib mashrulotlarning turi va usullarini o'zgartib turishi zarur.

Ayniqsa, tayyorgarlik davridagi ishlar beriladigan materiallarning emotsiyal jihatdan yuksak darajada bo'lishiga bog'liqdir, chunki kechagina ularning fikryodi uyin edi. Binobarin, ular o'qish-yozishdek aqliy faoliyatga birdaniga kirisha olmaydilar; maktabdagi o'quv ishlarini o'z xohishlariga bo'yundirmoqchi bo'ladilar.

Bu davrda og'zaki mashqlar harakat va sezgi a'zolari qatnashadigan faoliyat bilan almashishi lozim: gap tuzish va uni uzun chiziqcha bilan belgilash, gapni so'zlarga bo'lish, qisqa chiziqchalar bilan belgilash kabi.

Tayyorgarlik davrida o'qituvchi bilan o'quvchi orasida mustahkam aloqa, do'stlik paydo bo'lishi zarur. Bunday do'stlik o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, albatta. Yoqimli muomala, bola ko'nglini topa bilish, uning nima demoqchi ekanligini xatti-harakati, imo-ishoralaridan, o'qib olish, yutug'i uchun rag'batlantirib borish, xatosi uchun koyimasdan, yotig'i bilan tushuntirish orqaligina do'stlik uyg'onib, mustahkamlanib boradi. Bola o'qituvchini o'zining eng yaqin kishisi deb bilishi lozim.

Aqliy faoliyat bolalarni toliqtirib qo‘ymasligi uchun darsni ko‘pincha o‘yin-mashg‘ulot tarzida tashkil etish foydali. Bolalarda sezish, eshitish, ko‘rish qobiliyatlarini rivojlantirishda, ayniqsa, didaktik o‘yinlarning ahamiyati katta. Didaktik o‘yinlarning qariyb hammasida («Bo‘g‘inlarga ajrat», «Qaysi harfdan», «Jimjitlik», «Kim nima oladi» kabi o‘yinlarda) harakat elementlari bolalarning jismoniy, aqliy o‘sishiga katta ta’sir etadi.

Har bir o‘yin mobaynida bolalarning diqqati, zehni taraqqiy etib boradi. O‘yin-mashg‘ulot paytida bolalar bir-birlarining harakatlarini kuzatib boradilar, narsani ko‘zdan qochirmaslikka, o‘yin qoidalarini va berilgan vazifalarni esda saqlab qolishga tirishadilar, natijada avval o‘rganilgan materiallar bolalar xotirasida yana ham mustahkam o‘rnashib qoladi.

O‘qituvchi 6-7 yoshli bolaning yosh xususiyatini to‘la hisobga olishi, tushunarsiz suhbatlar, tanbehlar bilan ularning ko‘nglini qoldirmaslik zarurligini yodda tutishi kerak.

Bolalarning oilalari haqida, o‘yini, sayr va mehnatlari, ko‘rgan-bilganlari haqida suhbatlar o‘tkazish o‘qituvchining ularni yaxshi bilib olishiga imkon beradi,bola o‘zini o‘qituvchiga yaqin tuta boshlaydi.

O‘quvchilarni dastlabki kunlardanoq jamoat topshiriqlarini bajarishga o‘rgatish (sinf gullarini parvarishlash, o‘quv qurollari va tarqatma materiallarni ulashish, navbatchilik va boshqalar), ularning bajargan ishlarini tekshirib chqib, uni jamoa ravishda baholash bilan o‘quvchilarda burch va topshirilgan ish uchun javobgarlik hissi tarbiyalanadi.

Savod o‘rgatishga tayyorgarlik davrida bolalarning lug‘at boyligini kengaytirish, tasavvurini boyitish zarur ishlardan biridir, bolalar o‘rgangan barcha so‘zlarini nutqda o‘rinli ishlata bilishlari kerak, o‘quvchilar nutqini o‘stirishda o‘qituvchining nutqi muhim rol o‘ynaydi. U adabiy til normalariga rioya qilib, sodda, bolalar tiliga yaqin, tushunarli, yoqimli, jozibador so‘zlashi lozim.

Xat-savod o‘rganish ta’limining muhim bosqichi bo‘lib bu davrda o‘quvchilarga to‘g‘ri o‘qish chiroyli yozish hamda o‘qiganlarini so‘zlab berish o‘rgatiladi. Nutqni gaplarga, gapni so‘zlarga, so‘zni bo‘g‘inlarga ajratish tovushlarni eshitib, talaffuz qilib bir-biridan farqlash, so‘zda tovushlarning birin-kechinligiga e’tibor berishni ham bilib olishlarini ta’minlaydi.

Savod o‘rgatish ishlarini to‘g‘ ri tashkil qilish uchun quyidagilarga e’tibor berish lozimligi ishtirokchilarga tushuntiriladi.

1.Ta’limning didaktik jihatlariga e’tibor berib, uni so‘nggi yutuqlar bilan to‘ldirib borish.

2.O‘quvchilarning yosh va fizilogik jihatlariga e’tibor berish.

3.Ularda mustaqil faoliyatni rivojlantirish usullarini keng qo‘llash.

4.O‘qish va yozishning uzviyligiga e’tibor berish.

5.Alifbo va unga qo‘srimcha materiallardan ijodiy foydalanish.

Savod o‘rgatishda ta’lim-tarbiyaning zamonaviy tamoyillariga, xalq pedagogikasi, an’alariga, milliy qadriyat va axloqning odob mezonlariga qat’iy rioya qilish;

-o‘quvchilaning ruhiy holatlari va o‘qish-o‘rganishga qiziqish darajalarini hisobga olish;

-yozuvga o‘rgatishda ularning tovush- harflarni aniq farqlay olishiga e’tibor beriladi.

Savod ta’limidagi asosiy maqsad va vazifa bolalarga yozish va o‘qishni o‘rganishda ishonch hosil qilish, o‘z bilimlarini hech tortinmay, erkin, burro-burro, mantiqli va ifodali gapirishga o‘rgatishdan iborat.

Savod ta’limida bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning xotirasi, diqqati, nutqi, tafakkuri va idrokini tarbiyalash eng muhim omillardan ekanligi o‘qituvchilarga tushuntiriladi, usullari o‘rgatiladi. .

Savod o‘rgatish va nutq o‘stirish dastur bo‘yicha 128 soat, u 2 davrga bo‘linadi a) tayyorgarlik davri; b) asosiy davr.

Ta’limning davr va bosqlchlari ko‘ra:

1. Tayyorgarlik (alifbogacha bo‘lgan) davrdagi darslar;
2. Asosiy (alifbo) davr darslari.

Tayyorgarlik davridagi darslar o‘rganiladigan materialiga ko‘ra ikki bosqichga ajratiladi. Birinchi bosqich darslarida o‘quvchilar muayyan tovush va harfni o‘rganishga tayyorlanadi. Ma’lumki, bolalar tilni bir butun birlik sifatida tasavvur qiladilar. Ana shu tasavvurlari asosida nutqning bo‘laklardan tuzilishi o‘rgatiladi. Bola nutqning bo‘laklardan tuzilishini bilib borishi natijasida uning eng kichik bo‘lagi tovush ekanini anglay boshlaydi va savod chiqarishga tayyor bo‘ladi. Shundan so‘ng bolaga muayyan tovush va uni ifodalovchi shakl-harf tanishtiriladi. Tayyorgarlik (alifbogacha bo‘lgan) davrining yuqoridaq

vazifalaridan kelib chiqib 1-bosqich darslari nutqning fonetik bo‘laklarini o‘rganish darslari deb nomlanadi. Bo‘g‘in va so‘zdan unli tovushni ajratib olishning qulayligini hisobga olib, 2-bosqich darslari "Unli tovush va harflar o‘rganiladigan darslar" deb nomlanadi.

Savod o‘rgatish jarayonidagi darslar predmetiga ko‘ra ikki turga ajratiladi:

1. Alifbe darsligi asosidagi o‘qish darslari.
2. Yozuv daftari asosidagi yozuv darslari.

Asosiy davr o‘qish darslari yangi bilim berish bermasligiga ko‘ra quyidagi turlarga ajratiladi:

- 1.Yangi tovush va harf bilan tanishtiriladigan o‘qish darsi .
- 2.O’rgatilgan tovush va harflarni mustahkamlovchi o‘qish darsi.
- 3.Bilimlarni takrorlash, umumlashtirish darsi.

Asosiy davr yozuv darslari esa quyidagi turlarga ajratiladi :

- 1.Kichik harf va bosh harf yoziladigan yozuv darsi.
- 2.Kichik harf1ar yoziladigan yozuv darslari.
- 3.Bosh harf1ar yoziladigan yozuv darslari. .

4.O‘rganilgan bo‘g‘in, so‘z, gaplarni yozishni mashq qilish darslari. Xatsavod o‘rgatish jarayonida hafta oxiridagi o‘qish darslarning 15-20 daqiqasi sinfdan tashqari o‘qishga ajratiladi.

Alifbe darslarida o‘qishga o‘rgatishgacha bo‘lgan davrgacha 3 davrni o‘tish lozim.

- 1.Xat-savod o‘rgatish davri.
- 2.Bo‘g‘inlab o‘qishga o‘rgatish.
- 3.So‘zlarni o‘qishga o‘rgatish.

Alifbe davrining asosiy vazifasi bo1alarning og‘zaki nutqini o‘stirish, tovush talafuzini yaxshilash, o‘zbek tili alifbosidagi barcha harf1ar va imloviy belgilarini o‘rgatishdan iboratdir. Hozirgi o‘zbek alifbosida bir harf bilan (*a, b,d kabi*) va ikki birikmasi bilan (*sh,ch, ng*) ifodalanadigan tovushlar bor. Bu davrda tovush-harflarni o‘rgatishda alifbo tartibi emas, balki tovushlar talaffuzining oson-qiyinligi hamda bo‘g‘in va so‘zlearning soddaligi, harf shaklining qulayligi, hisobga olinadi. Alifbe davri uch bosqichga bo‘linadi:

1. Birinchi bosqich.

Alifbe davrining 1- bosqichiga quyidagi ishlar amalga oshiriladi :

- 1) gap, so‘z, bo‘g‘in, tovush haqida tushuncha hosil qilish;
- 2) unli, undosh tovushning talaffuzi yuzasidan mashq qilib, ularni birbiridan farqlash;
- 3) kesma harflar bilan ishlash 1 va 2 bo‘g‘inli so‘zlarni ravon o‘qiy olish;
- 4) o‘qiganlarni gapirib berish;
- 5) so‘zlarni to‘g‘ri o‘qish, chiroyli yozish qoidalariiga riosa qilish;
- 6) gapni bosh harf bilan boshlab, oxirida tegishli tinish be1gisini qo‘y
- 7) bola1arda eshitib yozish ma1akasini shak11antirish, diktant yozishni mashq qilish;

2.Ikkinchi bosqich. .

Ikkinchi bosqichda unli tovushlar bo‘g‘in hosi1 qilishi bilan tanishtiri1adi.

Bu bosqichda bo1a1ar ikki undosh o‘rtasida unli ke1gan yopiq bo‘g‘inli (*qish, qush, qum, mo ‘l*); 4-5 harfli ochiq va yopiq bo‘g‘inlar (*dalam, baliq, kiyik*); ketma-ket ke1gan bir xi1 undoshli so‘zlar (*pill, do ‘ppi, avval, koptok, yong ‘oq*); 6 harfli yopiq bo‘g‘inli so‘zlar (*qishloq, gulzor, Gulnoz*); uch bo‘g‘indan iborat so‘zlar (*Mavluda, Xolmirza, Gulgona*) bilan tanishtiri1adi.

3.Uchinchi bosqich.

A1ifbe davrining uchinchi, bosqichida ayrim kichik va bosh harflar, chiziqcha, tutuq va ko‘chish be1gi1ari o‘rgati1adi. Shuningdek bu bosqichda "j" harfi (*Jo ‘ra, joja, jiyda va jurnal, gjida non*) so‘zlarida ikki xi1 tovushni bi1dirishi uqtiri1adi.

O‘quvchilarni chiziqcha (-) bilan tanishtirganda, u aka-uka, katta-kichik kabi so‘zlar orasida qo‘yi1ishi ta’kid1anadi.

Tutuq be1gisini tushuntirish uchun *a ’lo, jur ’at*, kabi yozi1adigan ayrim zarur so‘zlarning jadvali tuzi1adi va yod1ati1adi. Shuningdek, *p-j; x-h* undoshlarini o‘rgatishda u1arning ayt1ishida a1ohida ahamiyat beri1adi.


Bo1ani dast1ab o‘qish jarayoniga tayyor1ash uchun unga nutqning asosiy tovush1ari a1ifbogacha tayyorgar1ik taniti1adi. Tovush nimaligini 6- 7 yoshli


bo‘laga tushuntirish bo‘g‘in, so‘zlamni tushutirishga nishatan bir oz qiyinroq bo‘ladi. O‘quvchilarni tovush bilan tanishtirish uchun maxsus tayyorgarlik ko‘rish, alohida ish usullari tanlash zarur. Yaxshisi, so‘zdan tovushni ajratib olish kerak.

Ba’zi bolalar ayrim tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qiladilar, buni hatto o‘zlar ham sezadilar. Bunday bolalarga ana shu tovushlar ko‘p uchraydigan so‘zlarini qayta-qayta mashq qildirish kerak. Masalan, R tovushini yaxshi talaffuz qila olmaydigan bolalarga *rom*, *randa*, *o‘rtoq*, *o‘roq*, *qirra*, *arra* kabi so‘zlarini sinfda ham, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ham ko‘proq aytish lozim.

Har bir (harfni) tovushni bo‘g‘indan ajratib olgandan keyin bolalarning diqqatini shu tovushning xususiyatlariga tortish, uning qanday hosil qilinishi amalda ko‘rsatish va bolalarga aytish lozim. Aks holda o‘quvchilar tovushlarni noto‘ri talaffuz qiladigan bo‘lib qoladilar.

1-ilova





. O‘qituvchi maxsus tayyorlangan alfavitdan xohlagan harfini ko‘rsatadi. O‘quvchilar navbat bilan harfning nomini va unli undoshligini aytadilar.

Masalan: A-unli, B- undosh.

(bu o‘yin unli va undosh tovushlar haqida tushunchalar berilib bo‘lgach o‘tkaziladi.)

1-slayd.: bu o‘yin bo‘g‘in ko‘chirishga doir. Bunda o‘qituvchi tomonidan tuzilgan “Bo‘g‘in jadvali”dan xohlagan bo‘g‘in ko‘rsatiladi. O‘quvchilar shu bo‘g‘inni o‘zlari topadilar. Masalan:

BA	BO	BI	BU	BO‘	BE
DA	DO	DI	DU	DO‘	DE
VA	VO	VI	VU	VO‘	VE
LO	LA	LI	LU	LO‘	LE
MA	MO	MI	MU	MO‘	ME


KA	KO	KI	KU	KO'	KE
PA	PO	PI	PU	PO'	PE

BO-LA, BO-BO, BO-TIR, BO-BIR, ...

Bu o‘yin o‘quvchilarning bo‘g‘indan so‘zlar tuzish va bo‘g‘in ko‘chirish qoidalarini o‘zlashtirishlariga yordam beradi.

2-slayd. O‘qituvchi istagan unli harfni ko‘rsatadi. O‘quvchilar shu unli tovushga bog‘lanadigan bo‘g‘in topib, og‘zaki ravishda so‘z yasaydilar.

Masalan:



Bu o‘yin o‘quvchilarning so‘zni to‘g‘ri yozish va to‘g‘ri talaffuz qilishlariga yordam beradi.


3-slayd. O‘qituvchi turli narsalar rasmlaridan 3-4 ta ko‘rsatadi, birinchi bo‘g‘inni o‘zi aytadi. Ikkinci bo‘g‘inni o‘quvchilardan so‘raydi.

Masalan: Ki-tob. Qu-yosh. Qu-lam. Gi-los...


4-slayd. O‘qituvchi kesma harflardan xohlagan so‘zni yozadi, o‘quvchilar o‘qiydilar. O‘quvchilarga ko‘zlarini yumib turishlarini buyuradilar. O‘qituvchi esa, so‘zdagi bir harfni almashtirib, so‘zning ma’nosini o‘zgartiradi. Qo‘l ko‘targan o‘quvchiga o‘qitiladi va bu hol bir-necha bor takrorlanadi.

5-slayd. O‘quvchilarga tanish bo‘lgan narsa rasmlaridan ko‘rsatiladi. O‘quvchilar shu narsa nomini bildirgan so‘zni bo‘g‘inga bo‘lib daftarlariga yozadilar.


Masalan:



YUL-DUZ



QU-YOSH



OY


O‘qituvchi so‘zni bo‘g‘inga to‘g‘ri ajratgan o‘quvchilarni rag‘batlantiradi.

6-slayd. O‘qituvchi 5-6 ta so‘zni aralashtirib ko‘rsatadi. O‘quvchilar shu so‘zlardan gap tuzadilar.

7-slayd. O‘quvchilarga rasmlar ko‘rsatiladi. Rasm asosida matn tuzish topshiriladi.



O




I I

O

3





Berilgan so‘zlardagi harflarni ko‘rsatilgan raqamlar tartibi bilan o‘zgartirib yangi so‘z hosil qiling.

Berilgan ta`limiy o‘yinlardan savodxonlik bayramlarida ham unumli foydalanish mumkin. Keltirilgan o‘yinlar namuna sifatida berildi, undan ijodiy foydalanish imkoniyatlaringiz juda ko‘p.

Xulosa qilganda, faqat analiz yoki faqatgina sintez bilan kifoyalaniib bo‘lmaydi, ammo tafakkur faoliyatining u yoki bu turi yetakchi rol o‘ynaydi. So‘zni analiz qilish bilan o‘quvchi so‘zni leksik ma’noga ega bo‘lgan bir butun sifatida anglaydi, bu – sintezdir, so‘z sintez qilinganda uning tovush tarkibiga diqqat jalgan etiladi, bu esa analizdir.

Umuman, savod o‘rgatish jarayonida analitik-sintetik ishlar sistemasi bolaning aktiv fikrlashini ta’minlaydi. Analitik-sintetik ishlar usuligina o‘quvchilarning bilish mustaqilligini ta’minlaydi, «muammoli» vaziyat yaratadi, bolalarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni o‘siradi.

Demak, savod o‘rgatish davrida asosiy usul analiz-sintez ya`ni tahlil-tarkib tovush usulidir. Shunga ko‘ra, darsning samaradorligini yanada oshirish, o‘quvchilarни bilim olishga qiziqtirish maqsadida qo‘llaniladigan ta’limiy-didaktik o‘yinlar ham shu usullarga asoslangan bo‘lishi, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday ta’limiy-didaktik, qiziqarli o‘yinlar 7-10 daqiqa davom etishi mumkin.

XULOSA

Boshlang‘ich sinf savod o‘rgatish darslarida lug‘at ustida ish olib borish o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bolalarning lug‘at boyligini oshirish asosan maxsus tizimdagи mashg‘ulotlar jarayonida amalga oshirildi.

O‘quvchilarga faqatgina so‘zni o‘rganibgina qolmay, balki so‘zning ma’nolarini ham o‘rganib olishga imkoniyat yaratish zazuz. Masalan: olma-ot, olma-fe’l, olma-daraxt mevaning bir turi, olma-harakat nomi ekanligini bilib oldilar.

Darslarda lug‘at minuti o‘tkaziladi. Imlo lug‘atlari bilan ishlandi. Izlanishga ham alohida e’tibor beriladi. Masalan: «O» tovushi yoki «A» tovushi bo‘yicha so‘zlar topib keling kabi. Ko‘rgazmalilik, jadval, sxema, taraqatma materiallardan ham foydalanish mumkin.

Lug‘at ustida ishslash jarayonida quyidagilarga e’tibor berish kerak.

- har bir ish turlarini tashkil etishda ma’no jihatidan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir guruh so‘zlardan kerakli so‘zni tanlashga o‘rgatish;
- yangi so‘zlarni eshitib, tushunib faol qo‘llashni muayyan izchillikda o‘z fikrini bildirish maqsadida ushbu so‘zlarni turli vazifada qo‘llash imkonini yaratish.
- muammoli vaziyatni yaratish.
- zamonaviy usullarda lug‘at ustida ishslashning turli mashg‘ulotlarda ko‘rsatish.

O‘quvchining lug‘ati qancha boy, rivojlangan bo‘lsa, uning nutqi boy bo‘ladi, o‘z fikrini aniq, ifodali, ravon bayon eta oladi.

Savod o‘rgatish darslarida lug‘at ustida ishslash 4 ta asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi. Bular quyidagilar:

1. O‘quvchilar lug‘atini boyitish, yangi so‘zlarni, shuningdek o‘quvchilar lug‘atida bo‘lgan ayrim so‘zlarning yangi ma’anolarini o‘zlashtirish;
2. O‘quvchilar lug‘atiga aniqlik kiritish;

3. Lug‘atni faollashtirish;
4. Adabiy til.

Lug‘at ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning:

1. So‘z boyligini oshirishga;
 2. So‘z ma’nolarini tushunib olishga, nutqini shakllantirishga;
 3. O‘quvchilarni fikrlash imkoniyatiga, mustaqillikka undash;
 4. Imlo lug‘ati bilan ishlashga
- ;5. Faollikka, so‘zlarni nutqda to‘g‘ri qo‘llay olishiga erishish.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalqta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF – 5712- sonli Farmoni. QHMMB: 0619/5712/3034-con, 29 04. 2019.
2. Nurmanov V., R. Rasulov O‘zbek tili jadvallarda. –T.: «O‘qituvchi», 1999.
3. Ro‘ziboeva O‘. va boshq. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish. –T.: «O‘zbekiston», 2001.
4. Safarova R. va boshq. Savod o‘rgatish darslari. . –T.: «Tafakkur», 2021.
5. Husanboeva Q. Adabiy ta’limda mustaqil fikrlashga o‘rgatish asoslari. – T.: «Sharq», 2017
6. Qosimova K. va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: «Nosir», 2019
7. Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: «O‘qituvchi», 2018
8. G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish printsiplari va metodlari. – T.: «O‘qituvchi»,2020.
9. G‘afforova T. va boshq. Savod o‘rgatish. – T.: «O‘qituvchi», 2017.
10. G‘afforova T. va boshq. O‘qish kitobi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik.-T.: —Sharq®, 2021.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Boshlang‘ich sinflarda savod o‘rgatish darslarida lug‘at ustida ishlash metodikasi.....	4
Savod o‘rgatish darslarida lug‘at ustida ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	15
Ona tili va o‘qish darslarida lug‘at ustida ishlashning zamonaviy usullari	19
Lug‘at ustida ishlashning shakli, usullari va vositalari.....	21
Savod o‘rgatish davri o‘qishga o‘rgatish darslarida tovush,bo‘g‘in,gap va matn ustida ishlashda pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	25
Xulosa.....	36.
Foydalanilgan adabiyotlar.....	38

